

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKANI O'QITISHDA
DIDAKTIK VA METODIK YONDASHUVLAR**

Xujamova Shohsanam Amirqul qizi,

Qarshi xalqaro universiteti assistent o'qituvchisi

E-mail: xujamovashohsanam@gmail.com

+998916342041

ORCID ID: 0009-0005-8382-0278

UDK: 51.7; 519.2/6

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda qo'llaniladigan didaktik va metodik yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Matematika darslarini o'quvchining qiziqishi va ehtiyojlariga mos holda tashkil etish, ta'lim jarayoniga o'yinlar, ko'rgazmali vositalar, muammoli vazifalarni integratsiyalash orqali o'quvchilar fikrlash faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritamiz. Amaliy misollar asosida samarali metodik usullarni tavsiflaymiz.*

Kalit so'zlar: *Matematika ta'limi, didaktika, metodika, boshlang'ich sinf, muammoli vazifa, o'yin metodi.*

**ДИДАКТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Абстрактный: *В данной статье теоретически и практически анализируются дидактические и методические подходы к преподаванию математики в начальном образовании. Рассматриваются возможности развития мышления учащихся через интеграцию игр, наглядных пособий и проблемных заданий, соответствующих интересам и потребностям учеников. Приведены практические примеры эффективных методических приёмов.*

Ключевые слова: *Алгебра высказываний, принятие решений, психология, логическое моделирование, анализ.*



DIDACTIC AND METHODOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY EDUCATION

Annotation: *This article provides a theoretical and practical analysis of didactic and methodological approaches to teaching mathematics in primary education. It explores opportunities to develop students' thinking through the integration of games, visual aids, and problem-based tasks tailored to learners' interests and needs. Effective methodological techniques are illustrated through practical examples.*

Keywords: *mathematics education, didactics, methodology, primary grades, problem-solving tasks, game method.*

Kirish: Bugungi kunda ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'rgatishda o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishi va tafakkur darajasini hisobga olgan holda darsni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Shu sababli, didaktik va metodik yondashuvlarni puxta tahlil qilish, ularning ta'sirchan usullarini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, matematika ta'limining samaradorligi, avvalo, dars jarayonida qanday **didaktik** va **metodik yondashuvlar** qo'llanilishiga bog'liq. Didaktika bu ta'lim mazmuni, shakli va uslublarining nazariy asoslarini o'rganuvchi fandir. Metodika esa ushbu nazariy yondashuvlarning amaliy qo'llanilishi, ya'ni o'qituvchining darsni qanday tashkil etishi, qanday vositalar, usullar va uslublardan foydalanishiga bevosita taalluqli. Bugungi ta'lim jarayonida har bir darsni o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos tarzda loyihalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili: Didaktik va metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash va amaliyotga joriy etish uchun zamonaviy ta'limga oid ilmiy-metodik manbalarni chuqur o'rganish muhimdir. Ushbu bo'limda boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lgan bir necha asosiy adabiyotlar tahlil qilamiz. **Qodirov B., To'xtasinova M. "Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi" (Toshkent, 2020)** Ushbu darslikda boshlang'ich sinf matematika ta'limining metodik asoslari yoritilgan bo'lib, har bir mavzu bo'yicha dars ishlanmalar,



amaliy topshiriqlar, interaktiv metodlar misollar bilan keltirilgan. **Yoqubova R. va boshqalar. “Matematika metodikasi asoslari” (Toshkent, 2019)** Mazkur manbada boshlang‘ich sinf darslarini loyihalashda qo‘llaniladigan didaktik prinsiplar, ularni real sinf sharoitida qo‘llash metodikasi, dars tahlili kabi jihatlar keng yoritilgan. **Polonskiy V.M. “Didaktika nachal’nogo obucheniya” (Moskva, 2018)** Ushbu rus tilidagi manba boshlang‘ich ta’limga oid umumiy didaktik asoslarni chuqur tahlil qiladi. Unda ta’limning mazmuni, shakllari va metodlarining ilmiy asoslari, shuningdek yoshga mos o‘qitish tamoyillari asoslab berilgan.

Nazariy asoslari: Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda didaktik va metodik yondashuvlarning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish zarurdir. Chunki har qanday ta’limiy faoliyat o‘zining nazariy poydevoriga tayangan holda amaliy natijaga erishadi. Shu boisdan mazkur bobda ta’lim nazariyasi, pedagogik psixologiya, didaktika va metodika fanlari doirasidagi asosiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Didaktika – ta’lim nazariyasi bo‘lib, o‘quv jarayonining mazmuni, shakllari, uslublari va tashkiliy jihatlarini o‘rganadi. Didaktik yondashuvlarda quyidagi asosiy tamoyillar e’tiborga olinadi:

Ilmiylik va tizimlilik boshlang‘ich sinf matematika darslari mantiqiy ketma-ketlik asosida, oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilgan holda tashkil etiladi. **Yoshlarga moslik** o‘quvchilar yoshiga, psixologik rivojlanishiga mos metodlardan foydalanish zarur. **Faollik va ongli ishtirok** o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtiroki va mustaqil fikrlashiga imkon yaratadigan sharoitlar ta’lim samaradorligini oshiradi. **Ko‘rgazmalilik** boshlang‘ich sinfda abstrakt tushunchalarni konkret predmetlar orqali tushuntirish, o‘quvchining qabul qilishini osonlashtiradi. Didaktik tamoyillar asosida qurilgan matematika darslari o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning mantiqiy fikrlashi, muammoli vazifalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Metodik yondashuvlar bu didaktik asoslarning o‘qituvchilik amaliyotida qanday qo‘llanishini belgilovchi uslubiy ko‘rsatmalardir. Boshlang‘ich sinf matematika ta’limida quyidagi metodik yondashuvlar keng qo‘llaniladi:



Muammoli ta'lim yondashuvi dars jarayonida o'quvchi oldiga echimini o'zi topadigan savollar yoki vazifalar qo'yiladi. Bu metod o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. **O'yin texnologiyalariga asoslangan yondashuv** matematika fanida nazariy bilimlarni o'yin shaklida berish o'quvchilarni faolroq jalb qiladi. Masalan, "sanash poygasi", "matematik domino" kabi didaktik o'yinlar dars samaradorligini oshiradi. **Konstruktiv yondashuv (konstruktivizm)** o'quvchilarning ilgari olgan bilimlariga tayangan holda yangi bilimlarni mustaqil ravishda kashf qilishga asoslanadi. Bu metodikada o'qituvchi yo'lboshchi, o'quvchi esa faol bilim egallovchi sifatida ko'riladi. **Kooperativ (hamkorlikda o'qitish) yondashuvi** guruhli ishlash orqali o'quvchilar muloqotga kirishadi, bir-biridan o'rganadi, fikr almashadi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy tahlil. Didaktik va metodik yondashuvlarning samaradorligini faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliyotda qanday ishlashini ko'rsatish orqali baholash mumkin. Quyidagi bo'limda boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llanilgan turli metodik yondashuvlarning real dars sharoitidagi qo'llanilishi, natijalari va o'quvchilar bilimiga ta'siri tahlil qilinadi.

O'yin texnologiyalari asosidagi yondashuv amaliyoti **Amaliy holat 1.** 2-sinf matematika darsida "Juft va toq sonlar" mavzusi o'tilayotgan darsda o'qituvchi "Matematik baliq ovlash" nomli didaktik o'yinni qo'lladi. Dars jarayonida akvarium rasmi tasvirlangan doskaga turli sonlar yozilgan baliqlar ilib qo'yiladi. Har bir o'quvchi baliq tutadi va u juft yoki toqligini aniqlab, kerakli savolga javob beradi. O'yinli faoliyat orqali o'quvchilar mavzuni qiziqish bilan o'zlashtirishadi, faol qatnashish orqali juft va toq sonlarni farqlash ko'nikmasi mustahkamlandi.

Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish. 3-sinfda "Ko'paytirish va bo'lish amallari" mavzusida dars o'tkazildi. Dars boshida quyidagi muammo qo'yildi: "Birinci qutida 3 ta olma, ikkinchi qutida shunday 4 ta quti bor. Jami nechta olma bor?" O'quvchilar bu savolni turli yo'llar bilan yechib ko'rishdi: ayrimlari birin-ketin qo'shish ($3+3+3+3$), boshqalari esa 3×4 tarzida yechim topdi. Bu metod o'quvchilarda



mavzuni mantiqiy anglash, mustaqil xulosa chiqarish, amallar orasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Natijalar va muhokama: *Mulohazalar algebrasidan foydalanish psixologik qaror qabul qilish jarayonlarining aniq va tushunarli modelini yaratishga yordam beradi. Yuqoridagi misolda talabaning kasb tanlash jarayonini mantiqiy jihatdan tahlil qilish amalga oshirildi. Bu usul boshqa qaror qabul qilish jarayonlariga ham moslashtirilishi mumkin.*

Xulosa: Didaktik va metodik yondashuvlarning uyg'unligi boshlang'ich sinf matematika ta'limida yuqori natijani ta'minlaydi. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos o'qitish, ko'rgazmalilik va o'yin elementlari bilan boyitilgan darslar nafaqat bilim berish, balki fikrlashni, qiziqishni va mustaqil izlanishni rivojlantiradi. Shu bois, har bir pedagog dars jarayonini zamonaviy metodik asoslarda tashkil etishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov B., To'xtasinova M. "Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi". – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Yoqubova R. va boshq. "Matematika metodikasi asoslari", – Toshkent, 2019.
3. Polonskiy V.M. "Didaktika nachal'nogo obucheniya". – Moskva: Prosveshchenie, 2018.
4. Skemp R.R. "The Psychology of Learning Mathematics", London, Penguin Books, 1971.
5. Vygotsky L.S. "Mind in Society", Harvard University Press, 1978.